

**ХУСАНБОЙ ҚАРИМОВ**



**БҮРТҮТ  
ҶАНГАЛИДА**



**Husanboy KARIMOV**

**BURGUT  
CHANGALIDA**

Detektiv roman

Toshkent  
“Istiqlol nuri”

2014

**UO'K 821.512.133-3**

**84(50')7**

**K25**

**Karimov, Husanboy**

Burgut changalida / H. Karimov. - Toshkent : Istiqlol nuri, 2014. - 360 b.

**KBK 84(50')7**

Soʻzboshi muallifi:

**Eminjon EGAMBERDIYEV,**  
yuridik fanlari doktori

*Husanboy Karimovning «Burgut changalida» deb nomlangan mazkur asari kiril alifbosidan lotin alifbosiga oʻgirilib, birinchi marotaba nashr qilinmoqda. Asarda bugungi kunning eng ogʻriqli muammolaridan boʻlgan narkobiznes, uyushgan jinoyatchilik, tadbirkorlikdagi gʻirromliklarni fosh etishi bilan eʼtiborga sazovor. Kitobda bu illatlarga qarshi ayyovsiz kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining hamkorlikdagi mashaqqatli hamda sharaflil faoliyatlari ham samimiy va ishonarli tarzda yoritib berilgan.*

ISBN 978-9943-4303-0-3

© H. Karimov,  
© «Istiqlol nuri»,  
2014.

**Kitobxon.Com**

## MUNOSIB TUHFA

Taniqli yozuvchi Husanboy Karimov ko‘p yillik sermahsul ijodiy faoliyati mobaynida ko‘plab detektiv qissalari orqali adabiyot muxlislari mehrini qozongan. Shu paytgacha adibning «Ministrning omonati», «Iztirob titroqlari», «Cho‘qqidan oqqan ko‘z yoshlar» kabi kitoblari badiiy ijod muxlislari tomonidan katta qiziqish bilan o‘qilayotgani fikrimizning yorqin dalilidir.

Qutlug‘ yoshda ham yoshlikka xos g‘ayrat-shijoat bilan ijod qilayotgan ijodkor yaqinda «Burgut changalida» deb nomlangan yangi detektiv romanini yozib tugatdi. Ta’kidlash joizki, mazkur asar bugungi kunning eng og‘riqli muammolaridan bo‘lgan – narkobiznes, uyushgan jinoyatchilik, tadbirkorlikdagi g‘irromliklarni fosh etishi bilan ham e’tiborga sazovor. Eng muhimi, asarda bu illatlarga qarshi ayovsiz kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining hamkorlikdagi mashaqqatli hamda sharafli faoliyati samimiy va ishonarli tarzda yoritib berilgan.

Ushbu detektiv roman qahramonlari sizni bizning zamondoshlarimiz, bir tuproqda tug‘ilib, bir havodan nafas olayotgan hamshaharu hamqishloqlarimiz, tanish-bilishlarimiz. Ularning ba’zilari o‘zlari tug‘ilgan, kindik qoni to‘kilgan elu yurti nomusi orini ko‘z qorachig‘idek asrash, vatanining har bir qarich yerini sotqinu g‘alamislardan saqlash uchun kechayu-kunduz oilasi, halovatini o‘ylamay xizmat

qilsa, ba'zilar faqat boylik orttirish, aysh-ishratu maishat qilish, hattoki o'z vataniga, xalqiga xiyonat qilishgacha tayyor kimsalardir.

Asarni o'qir ekansiz, undagi qahramonlarning o'y-fikrlari, ichki kechinmalari, xatti-harakatlari zamirida bir narsaga imon keltirasiz. Chindan ham Jasur savdogar, Jahongir va uning gumashtalari, irodasiz kuyov Sardor kabilarning fojeali qismati kitobxonda achinish hissini uyg'otmaydi, balki qilmish-qidirmish ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qiladi. Huquq tartibot idoralarining o'z vatani va xalqi tinchligi, osoyishtaligini hamma narsadan ustun biluvchi xodimlari bo'lgan generallar Tolibjon Hamidov, Erkin Qambarov, 3-darajali davlat adliya maslahatchisi, general-mayyor Muhiddin Sulaymonovlar, polkovnik Saminjon Ahmedov, leytenant Bahodir Abdullayev va tergovchi Anvar Nasimov obrazlari zamirida xalqimizning ardoqli farzandlari siymolari gavdalanganki, beixtiyor ularga mehning tushib, ularga o'xshaging keladi. Va ayni bir paytda Jasur savdogar, Jahongir, Sardor, Ilhom, Akrom, Ashur lo'li, Shokir, Ikrom, tojikistonlik ako Mirzo va Xayriddin kabi manqurtlardan nafratlanasan, kishi.

Asarning yana bir yutug'i shundan iboratki, uni qo'lga olgan har bir o'quvchi bir nafasda o'qib chiqadi. Chunki u xalqchil, sodda, tushunarli tilda ifodalangan. Go'zal qochirimlar, iboralar, jozibador tabiat manzaralari kishini o'ziga rom qiladi, ruhiyatini ko'taradi, xotirasida muhrlanadi.

Maroqli mutolaa uchun sizga oldindan yuksak ilhom tilagan holda, ko‘p yillik serqirra faoliyat davomida haqiqat va adolatning tolmas kurashchisi bo‘lgan hassos adib Husanboy Karimovning yangi kitobi ko‘p ming sonli kitobxonlar uchun qutlug‘ bo‘lsin deymiz!

**Eminjon EGAMBERDIEV,**  
*yuridik fanlari doktori*

Tabiat yana borliqni tarovatga burkab, aprel o‘z go‘zalligini ko‘z-ko‘z qila boshladi. Dastlab havo anchayin issiq keldi, keyin kutilmaganda sovuq turib, havo aynidi, kunda-kunora sharros yomg‘ir yog‘a boshladi.

Bugun ham osmonni pastak bulut qoplagan, garchi u qadar zulmat bo‘lmasa-da, ulkan bulutlar soyasida quyosh xira nur taratadi, shu bois, atrofdagi ayrim narsalarni ko‘z ilg‘amaydi. Bir qarashda hamma narsa chaplashib, ranglar o‘zaro qorishib ketgandek ko‘rinadi.

Ayni damda shahar markazidagi bozor oldidagi maydonchada turgan xorijiy mashina ichida o‘tirgan Ilhom va Akrom g‘alati bir holatni boshidan kechirardi. Akromning ko‘zlari olazarak, Ilhom esa go‘yo gazeta o‘qimoqda, ammo u ham aslida bozor darvozasidan kirib chiqayotgan tanish-notanish odamlarni kuzatmoqda. Bir payt bozorchilar orasida ikki qo‘lida qora to‘rxalta, uncha zarurati bo‘lmasa ham, qora ko‘zoynak taqib olgan Odil ko‘rindi.

– Ana! Ana u iflos! Ho‘v ana, qora ko‘zoynak taqqani, – dedi Akrom qo‘llarini bigiz qilganча hovliqib.

Ko‘zlarini katta-katta ochgan Ilhom, jahli chiqib, sherigini jerkib tashladi.

– Och bo‘ridek bo‘kiraverma! Ko‘ryapman.

Odil shoshib borib, turnaqator tizilib turgan taksilardan birining orqa o‘rindig‘iga o‘tirdi. Taksi o‘rnidan qo‘zg‘olgach, Akrom ham mashinasini uning ortidan haydadi. Shahar ko‘chalari bo‘ylab



anchagina yurgan taksi ko‘p qavatli uylardan birining oldida to‘xtadi. Uni izma-iz ta‘qib qilayotgan Akrom mashinasini sal nariroqda to‘xtatdi. Ayni paytda ulardan sal narida turgan eski «Jiguli»dagi notanish kimsa voqealar rivojini asta kuzata boshladi.

Taksidan tushgan Odil atrofga bir alanglab olgach, ko‘p qavatli uylardan birining yo‘lagiga kirib ketdi. Akrom va Ilhom darhol mashinadan tushib, uning ortidan ergashdilar. Bu paytda «Jiguli»dagi noma‘lum kimsa ularni fotoapparatda suratga olayotgan edi.

Akrom yo‘lak eshigi oldida qoldi va atrofga alanglay boshladi. Yo‘lakda dimog‘iga urilgan zax hididan aftini bujmaytirgan Ilhom, Odilning ortidan kuzatib turardi. Uni sezmagan Odil ikkinchi qavatdagi tanish xonadon eshigi qo‘ng‘irog‘ini chaldi. Bir ozdan so‘ng Dilnoza eshikni ochdi.

– O‘zingizda kalit bor edi-ku? – dedi, xalatiga o‘ranayotib, norozi ohangda, chiroyli uy bekasi.

– Qo‘llarim band edi. Qolaversa, seni juda sog‘inib ketdim. Tezroq visolingga etgim keldi.

Odil hansiragancha ichkariga kirar ekan, qo‘lidagi narsalarni cho‘g‘dek qizil gilamga tashladiyu Dilnozani quchoqlab oldi.

– Voy, namuncha! – Sochlarini tartibga keltirayotgan juvon ishva bilan Odilning ko‘kragiga engil turtib qo‘ydi.

Borgan sari avji qo‘ziyotgan Odil Dilnozani qaynoq bo‘salarga ko‘mib tashladi.

– Hammasi besh, jonim! Xaridorlar bugun kelishadigan bo‘lishdi. Shu safar rejamizni



ko'ngildagidek amalga oshirsak, Rossiya bizga muntazir. Barchasiga qo'l siltab Rossiyaga ketamiz.

– Rostdanmi?! – Xushxabardan erib ketgan Dilnoza oshig'ining bo'yniga osilib irg'ishlaydi. – Nihoyat, shu bosh og'riqlardan qutulib, haqiqiy hayotni ko'rarkanmiz-da!

– Baxtli bo'lib qolamiz, ishonaver.

Kutilmaganda eshik qo'ng'irog'i jiringladi. Odil sevgilisiga shubha bilan termulib.

– Tinchlikmi?! Bitta-yarimtasini kutayotganmiding? – dedi.

– Nimalar deyapsiz? Sizdan boshqa kim kelardi bu uyga? Qo'shnilar bo'lsa kerak.

Dilnoza istar-istamas oshig'ining quchog'idan chiqar ekan, eshik oldiga borib, norozi ohangda: «Kim?» deb so'radi.

Tashqaridan Akromning xirildoq ovozi eshitiladi.

– Odil aka kerak edi.

– Hozir.

Dilnoza achchiq bilan Odilning oldiga borib, kinoyali jilmayadi.

– Ha, «birontasini kutayotganmidingiz?» Boring, sizni so'rab kelishibdi.

Odil qo'lidagi soatiga qaradi va hayron bo'lgandek, elkasini qisdi.

– Xaridorlarmikin? Hali kelishgan vaqtimizga juda erta-ku!

Odil eshikni ochdi va ostonada Akromni ko'rib, sarosimaga tushdi. Akrom o'sha zahoti uning biqiniga pichoq tiradi, so'ng angrayib qolgan Odilga qarab, barmog'ini lablariga qo'yganicha, pastga etakladi.

– Ovozingni chiqarsang, ichagingni boshingga salla qilib qo‘yaman. Seni shef yo‘qlayapti. Zarur gapi bor ekan. – Yo‘l-yo‘lakay uning qulog‘iga shivirladi Akrom.

Pastda ularni ishshayib kutib turgan Ilhomga ko‘zi tushgan Odil, bir qadam ortga tislandi. Jiddiy bir ko‘ngilsizlikni his etgandek, yuragida nimadir chirs etib uzilganday bo‘ldi.

– Ish bitgani yo‘q. Ertaga shefning huzuriga o‘zim boraman.

Kutilmaganda Ilhom tahdid bilan uning peshonasiga to‘pponcha tiradi.

– Shefning buyrug‘i shu: hozir yo pulni, yo tovarni olib borishing kerak.

Odil bir siltanib uning qo‘lidan chiqishga urindi.

– Qo‘yvor. Sen menga xo‘jayin emassan!

– O‘zing bilasan, biz shunchaki ogohlantirib qo‘ydik, xolos, – deya Ilhom bexosdan zinapoyadan ko‘tarila boshlagan Odilning boshiga to‘pponcha dastasi bilan urib yiqitdi. Ingrab yiqilgan Odilni qo‘ltiqlaganicha, Akrom va Ilhom mashina tomon yurishdi. Bu holatni ikkinchi qavatdan kuzatib turgan Dilnoza baqirib yubormaslik uchun darpardani tishladi va o‘zini derazadan chetga oldi.

O‘sha payt qo‘lida tugun ko‘targan ayol ularga yuzma-yuz bo‘lib, ro‘molining uchini tishladi:

– Ozroq ichsalarining bo‘lmaydimi, bolalarim.

Ikkovlon ayolga yolg‘ondakam tabassum qilishdi.

– Do‘stimiz sal ko‘proq ichib qo‘yib, kayfi oshib qoldi. Hozir uyiga tashlab kelamiz.

Tugun ko‘targan ayol ular yonidan o‘tib, uy



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi  
<https://kitobxon.com/oz/asar/1433> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси  
<https://kitobxon.com/uz/asar/1433> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно  
найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/1433>